



INGLIZ TILINING ENG SAMARALI BOYITILISH YO'LLARI

Shahrisabz davlat pedogogika instituti Tillar fakulteti Xorijiy til nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi
K. Daminova.

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 3- kurs talabasi
M. Xazratova

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ingliz tilini samarali o'rganish hamda unda turli xil zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'zgaruvchan ta'limni rivojlantirishga intilishda texnologiya, talaba yoxud abituriyent o'quvchilarga yo'naltirilgan yondashuvlar, kommunikativ til o'rgatish strategiyalari, loyihaga asoslangan ta'lim, multimodal resurslar va madaniy kompetentsiyalarning integratsiyasi, innovatsion yondashuv, qulay va samara beradigan turli xil usullar, kommunikatsiyon ilg'or g'oyalar, shuningdek, oliy ta'limda o'quv predmeti fan dasturini ishlab chiqishda mustaqil ishlar mavzularini qanday mezonlar asosida belgilash maqsadli bo'lishi shu bilan birga "Mustaqil talim ko'nikmalari" faniga ajratilishi zarur bo'lgan o'quv soatlari, uslubiy yondashuvlar haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Til, ingliz tili, mustaqil til o'rganish, ta'lim texnologiyalari, loyiha, qiziqish, faollik, interfaol usullar.

K. Daminova

teacher of the Department of Foreign Language Theory, Faculty of Languages, Shahrisabz State Pedagogical University.

M. Khazratova

3rd year student of foreign language and literature

Annotation: In this article, the effective learning of English and the use of various modern technologies in it, technology, student-centered approaches, communicative language teaching strategies, project-based learning, integration of multimodal resources and cultural competences, innovative approach, convenient and various effective methods, advanced communication ideas, as well as curriculum development in higher education. In the speech, the criteria for determining the topics of independent work are discussed, as well as the teaching hours and methodical approaches that should be allocated to the subject of "Independent Learning Skills".

Key words: Language, English, independent language learning, educational technologies, project, interest, activity, interactive methods.

Даминова К.

преподаватель кафедры теории иностранного языка языкового факультета Шахрисабзского государственного педагогического университета.

Хазратова М

студентка 3 курса факультета иностранного языка и литературы



Аннотация: В этой статье эффективное изучение английского языка и использование в нем различных современных технологий, технологий, личностно-ориентированных подходов, коммуникативных стратегий обучения языку, проектного обучения, интеграции мультимодальных ресурсов и культурных компетенций, инновационного подхода, удобных и разнообразных эффективные методы, передовые коммуникационные идеи, а также разработка учебных программ в высшем образовании. В выступлении обсуждаются критерии определения тем самостоятельной работы, а также учебные часы и методические подходы, которые следует выделить по предмету «Навыки самостоятельного обучения».

Ключевые слова: Язык, английский язык, самостоятельное изучение языка, образовательные технологии, проект, интерес, деятельность, интерактивные методы.

XX asrning oxirlariga kelib ingliz tiliga bo'lgan talab oshdi. Hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish zamonaviy ta'limning ajralmas qismi hisoblanib bormoqda. Turli xil sohalardagi chet ellik hamkorlar va ular bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirish uchun ham chet tili ya'ni ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab oshmoqda. Zamonaviy jamiyatda kasbiy ta'lim sifatida chet tillari kasbiy talimimizning muhim tarkibiy qismi hisoblanib kelmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, kollej, litsey, keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Tadqiqotlar jarayonida ingliz tilini o'rganishning turli xil mashhur usullaridan va ishlashi qulay bo'lgan internetlardan foydalanilganligi ko'zda tutilgan. Maqolani yozish davomida nazariy va ma'lumotlarga, qiziqishlarga to'la xulosa chiqarish, analiz va sintez qilish, mantiqiy tamoyillardan foydalanilgan. Til biz uchun asosiy aloqa vositasi, u bilan birga uning rivojlanishini tasavvur qilish juda ham qiyin. Hozirgi kunda bizning dunyomizda bo'layotgan ijtimoiy munosabatlarimizda kommunikativ axborotlarni oshirishni talab qiladi, ular muloqot jarayonida muloqotchilari bilan turli xil mavzularda fikr almashinishlari, til va so'zlashuv normalarini to'g'ri ishlatishni taqazo qiladi. Bunday sharoitda ingliz tili kommunikativ qobiliyatni shakllantirishning asosiy maqsadi hisoblanadi va bu ingliz tili madaniyatlararo va shaxslararo muloqotni amalga oshirishni talab etadi. Yigirmanchi asrning oxiriga kelib esa ingliz tili jahon ahamiyatiga ega til sifatida mustahkamlandi. Dunyoning aksariyat mamlakatdagi maktablarida esa bu til o'qitilishi majburiy hisoblanib turli xil to'garaklar ochila boshlandi. Bunda o'qituvchilar ushbu tilni o'quvchilarga o'rgatishning turli metodikalaridan foydalana boshlashdi. Keyinchalik, ko'plab mualliflar ingliz tilini o'rganishning samarali dasturini mustaqil ravishda yaratishga harakat qilishdi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda xususan facebook, twitter, telegram orqali onlayn darslar olish yoki Youtube va skype orqali video darslar ham til o'rganishda juda ommalashgan va qulay usullaridan biri hisoblanadi. Turli xil til o'rgatuvchi o'quv kurslarining ham o'rni beqiyosdir. Yaqinda, 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon, Benny Luisning til o'rganishdagi yangicha yondashuvi menda katta qiziqish uyg'otdi. U



Italyan tilini o'rganish uchun o'nlab grammatika kitoblarini o'qigan, til kurslariga qatnagan va ko'plab so'zlar yodlagan lekin harakatlari besamar ketgan. Shundan so'ng, "Tinglash va takrorlash" usuli bo'yicha til o'rganishni boshlagan. U o'zining ustida ancha ishladi. O'qishga qiziqishi yanada kuchaydi. Va nihoyat u bir yil deganda Italyan tilida bemalol so'zlashishni o'rgandi. Unga keyinchalik boshqa tillarni o'rganishga ham qiziqish ortdi. U buning uddasidan chiqq oldi. 3-4 oy ichida boshqa tillarda ham bemalol so'zlashadigan bo'ldi. Natijada U 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimonlik darajasigacha yetdi. Uning bu til o'rganish usulini shunday tushuntirishimiz mumkin: bola 2-2.5 yoshlarida to'liq gapira olmaydi lekin so'z yig'ish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bolaga hech qanaqa dars yoxud grammatika o'tilmaydi va dashnom berilmaydi. U atrofida tilni tinglash, qaytarish yoxud amalda qo'llash orqali o'zining ona tilini o'rgana boshlaydi. Xuddi shu bolalar singari ham kattalar eshitish va takrorlash orqali tillarni o'rganadilar. Yangi tilda gapira olish uchun esa hamma so'zlarni bilish muhim emas, hattoki ona tilimizda ko'p so'zlarni bilmasak ham juda yaxshi muloqot qila olamiz. Ingliz tilini o'rganishni maqsad qilgan inson o'zi uchun inglizcha muhit yaratishi ya'ni doimo inglizcha tinglab, o'qib, yozib va gapirishi maqsadga erishishning eng samarali usulidir. Ko'pchilik insonlar "Maxsus til kurslariga borsam, albatta, chet tilini o'rganaman", deb o'ylashadi. To'g'rirog'i, chet tili kurslarini o'z maqsadlariga erishishda ma'sul deb o'ylashadi. Bu esa umuman to'g'ri hisoblanadi. Unutmasligimiz kerakki, har doim o'zimiz uchun o'zimiz ma'sul hisoblanamiz o'qituvchi o'rgatishi mumkin, ammo saboqning 99% o'zimizga, 1 foizi o'qituvchiga bog'liq deydi Alisher Absalomov o'zining "Rus tilini o'rganishning samarali usullari" kitobida. Yuqorida tilga qiziquvchi va til o'rganuvchilarga maqsadlariga erishishlari uchun ba'zi asosiy omillar haqida gapirib o'tdim. Negaki til millat ko'zgusi hisoblanadi. Endilikda esa chet tilini o'rganishda o'z oldiga maqsad qo'yib, bu maqsadlariga erishmayotganlarning ba'zi bir xatolari haqida gapirib o'tmoqchiman. Misol uchun insonlar doimo o'zlari uchun qiziqarli va huzurbaxsh mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga harakat qilishadi. Avsusi, o'zlari qo'ygan maqsadlariga teroq, osonroq erishsam degan fikr bilan ish boshlashadi. Agarda yangi til ham o'sha o'zlari ahug'ullanayotdan qiziqarli mashg'ulot kabi o'rganilsa, maqsadga shunchalik tez va oson yetishish mumkin. Aslida biz buni o'zimizga majburiyat deb qabul qilamiz natijada biz o'zimizga buni qiyin qilib qo'yamiz. Keyinchalik zerikishga ham olib keladi. Aksincha biz shug'ullanayotgan mashg'ulotimiz, kishilar o'rtasidagi muhokamamizni o'rganayotgan tilimizda gapirib muloqot qilsak bu bizga yanada osonroq bo'ladi. Va bu bizga qiziqarli bo'lib tuyuladi. O'rganayotgan tilimiz haqidagi kinolar, musiqalar, audiolalar va hokazolar eshitishimiz ham katta maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir ko'pchilik yo'l qo'yadigan xatolardan biri, bu noreal maqsadlarni oldiga qo'yish. Ayrimlar ish, o'qish tufayli yangi til o'rganishga kuniga yarim yoki bir soat vaqt ajratsayu, reja asosida esa ikki yoki uch soatlik vaqt belgilasa, kun oxiriga kelib ulgurolmagani uchun stresga tushishi yoki til o'rganishni butunlay tashlab qo'yishi mumkin. Bu esa uzoq muddatda sekin sekin bo'lsa ham umuman to'xtatib qo'yishdan yoki stresga tushib foydasiz asabiylashgandan ko'ra, oz-ozdan o'rganib bo'lsa ham maqsadga erishishni foydaliroq ekanligini ko'rsatadi. Mutaxassislarining e'tirof etishicha, ijobiy ruhiy ichki



kechinmani saqlab qolish va shakllantirish til o'rganishda qo'llanadigan usullardan ham kuchli hisoblanadi.

Yana bir Amerikalik olim Richard Sparks 2006- yil o'z tadqiqotlari bilan til o'rganish uchun allaqanday olamshumul tug'ma iste'dodlar kerak degan fikr asossiz ekanligini isbotladi. Yana bir o'qitishning zamonaviy usullaridan biri differentsiatsiyadir. O'qituvchilar o'quvchilarning turli xil o'rgabish uslublari va qobiliyatlarga ega ekanligini tan olishlari va darslarini barcha o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishlari kerak. Bu turli xil o'qitish usullarini o'z ichiga oladi. Guruhlarda yoki juftlarda ishlash orqali talabalar o'zlarining muloqot qobiliyatlarini mashq qilishlari, fikr almashishlari va bir- birlaridan o'rganishlari mumkin. Innovatsion usullar, texnologiya va hamkorlikda o'rganish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar talabalarga yoxut abituriyent o'quvchilarga ingliz tilida samarali va ishonchli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni o'rgatish ko'proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u o'z- o'zini tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish ko'nikmalariga ega ekan. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismidir. Shunca amin holda o'qituvchilar eng ilg'or yondashuvlar bilan tanishishlari va keyinchalik ularni birlashtishi va o'z ishlarida foydalangan holda ta'lim tizimida sezilarni o'sishga erishish mumkin. Ko'plab tashkilotlar axborotni jo'natish olish uchun multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi darajaga o'tmoqda. Kompyuterlar va boshqa qurilmalardan foydalanish butun ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli bo'lishi kerak. Bundan tashqari ta'limda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Muvaffaqiyatli mustaqil ta'lim jarayonida o'qituvchining roli, bilim beruvchi mutaxassis sifatida, talabalarga o'rganish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni o'zlashtirishga yordam beradigan "murabbiy" roliga o'tadi. Faoliyatni asosiy turi o'qituvchining o'quvchilarga o'quv maqsadlari haqida o'z g'oyalarini yaratishga yordam berishdir. Shuningdek, o'quv jarayonida axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni kabi muhim masalalar kontekstida sodir bo'ladi.

REFERENCES:

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., - London., 2006.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - London., 2001.
3. Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. -Москва., 1985.



4. Cushing Weigle, Sara. Assessing writing. Cambridge: Cambridge University Press, 2002
5. David Moore University of Western Australia Primitive Languages: linguistic determinism and the description of Aranda eighty years on ,6 December 2017
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Language_acquisition#:~:text=Language%20acquisition%20is%20the%20process,words%20and%20sentences%20to%20communicate.